

## PEDAGOGIK ISLOHOTLAR: MUAMMO VA SAMARALI YECHIMLARNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

S.M.Po‘latova

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti, Termez filiali assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20628384>

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda jahon andozalari darajasida muvaffaqiyatli integratsiyalashuv jarayonini boshdan kechirayotgan ta‘lim tizimidagi pedagogik islohotlarning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Maqolada sohada uchrayotgan real to‘siqlar, ta‘lim sifatini boshqarishdagi muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan innovatsion yechimlar, xususan, raqamli texnologiyalar hamda STEAM yondashuvini muvaffaqiyatli joriy etish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Pedagogik islohot, innovatsion ta‘lim, raqamlashtirish, kreativ fikrlash, malaka oshirish, STEM yondashuvi.

### **Kirish:**

XXI asr — intellektual salohiyat, axborot va yuqori texnologiyalar asridir. Har qanday davlatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uning ta‘lim tizimi nechog‘lik ilg‘or va moslanuvchan ekanligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ta‘lim sifatini tubdan yaxshilash, o‘qitish metodikasini zamonaviylashtirish borasida keng ko‘lamli pedagogik islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, ta‘lim tizimini mexanik ravishda o‘zgartirish yetarli emas; jarayonning tub mohiyatini yangilash, o‘qitish modellarini zamonaviy axborot va metodik muhitga moslashtirish dolzarb muammo hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, islohotlar doirasida yuzaga kelayotgan strategik muammolarni aniqlash va ularning konseptual yechimlarini ishlab chiqish ushbu tadqiqotning bosh maqsadidir.

### **Ta‘lim tizimidagi tizimli muammolar va dialektik qarama-qarshiliklar.**

Pedagogik islohotlarning amaliyotga joriy etilish darajasi va uning samaradorligi tahlil qilinganda, quyidagi bir qator konseptual muammolar ko‘zga tashlanadi:

1. **Metodika:** Uzoq yillar davomida shakllangan an‘anaviy, ya‘ni faqat tayyor axborotni yodlashga va reproduktiv qayta tiklashga asoslangan ta‘lim modeli hamon ustuvorlik qilmoqda. O‘quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi metodik bazaning yetarli darajada ommalashmaganligi islohotlar sur‘atini sekinlashtirmoqda.
2. **Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilish:** O‘quv dasturlari va darsliklar mazmunida akademik nazariyaga haddan tashqari ko‘p urg‘u berilib, hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda ishlab chiqarish, amaliyot bilan integratsiya qilish mexanizmlari oqsamoqda.

### **Pedagogik islohotlarni jadallashtirishning strategik yechimlari.**

Mavjud fundamental va funksional muammolarni bartaraf etish hamda ta‘lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish uchun quyidagi kompleks choralarni tizimli amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

**Pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash formatini o‘zgartirish:** Malaka oshirish tizimini shunchaki nazariy ma‘ruzalardan butunlay amaliy, loyihaga asoslangan Keys texnologiyalariga asoslangan treninglarga o‘tkazish lozim. O‘qituvchi endi darsda yagona bilim manbai emas, balki jarayonni boshqaruvchi vazifasini bajarishi shart.

**STEAM va fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish:** Ta‘lim mazmuniga fanlarni alohida-alohida emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda, amaliy muammolarni yechish orqali

o'rgatuvchi STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvini darsliklarning eng quyi bo'g'inidan boshlab singdirish kerak.

**Raqamli ta'lim muhitini to'liq transformatsiya qilish:** Darslarni tashkil etishda oddiy elektron taqdimotlardan (PowerPoint) voz kechib, virtual laboratoriyalar texnologiyalarini joriy etish. Bu o'quvchining fanga bo'lgan vizual va motivatsion qiziqishini keskin oshiradi.

**Kompetensiyaga asoslangan mustaqil ta'limni rag'batlantirish:** Mustaqil ta'lim soatlarini kengaytirish va ularni tizimli nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish. Talaba yoki o'quvchi ma'lumotni mustaqil izlab topish, uni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lishi uchun o'quv yuklamalarini optimallashtirish zarur.

**Akademik erkinlik va motivatsiya:** Pedagoglarni ortiqcha byurokratik hisobotlar, qog'ozbozliklardan 100 foiz ozod qilish. Ularning faoliyatini faqatgina o'quvchilarining sifat ko'rsatkichlari, kreativ yutuqlari va xalqaro olimpiadalardagi natijalariga qarab moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini yanada shaffolashtirish lozim.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, bugungi kundagi pedagogik islohotlarning yakuniy muvaffaqiyati nafaqat moddiy-texnik bazaning yangilanishiga, balki ta'lim subyektlarining — birinchi navbatda pedagoglarning fikrlashi va dunyoqarashi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir. Yuqorida taklif etilgan yechimlarning kompleks va uzviy ravishda ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi mamlakatimiz intellektual salohiyatini oshirishga, jahon miqyosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Yo'ldoshev J.G., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 232 b.
3. Azixxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
4. Rogers, C. R. Freedom to Learn: A View of What Education Might Become. – Columbus, Ohio: Charles E. Merrill, 1969. – 358 p.
5. Fullan, M. The New Meaning of Educational Change (5th ed.). – New York: Teachers College Press, 2016. – 288 p.
6. UNESCO. Digital Education Strategies: Transforming Education for the Digital Age. – Paris: UNESCO Paris, 2022.
7. Toffler, A. Future Shock. – New York: Bantam Books, 1970. (Ta'lim tizimining moslashuvchanligi bo'limi).
8. Johnson, D. W., Johnson, R. T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. – Boston: Allyn & Bacon, 2014. – 272 p.